

SON CHANG-SOPNING “YOMG‘IR YOG‘AYOTGAN KUN” ASARIDA PUNDAN MUNHAK VA EKZISTENSIALIMZ TASVIRI

U.M. Elmuratova, SamDCHTI o‘qituvchisi,
N.L. Xayrullayeva, SamDCHTI IV kurs talabasi.

Pundan Munhak - 1948-yilda Koreya bo‘linganidan keyin paydo bo‘lgan bo‘lingan xalq adabiyoti bo‘lib, ushbu adabiyotda Koreya tarixidagi dramatik voqealar, shuningdek, oilalar va odamlar bo‘linib ketgan og‘ir psixologik vaziyat aks ettirilgan. Son Chang-sopning “Yomg‘ir yog‘ayotgan kun” asari orqali millatning og‘ir ahvoli tasvirlangan. Bu asarda vatan sog‘inchi, oila munosabatlari, yaqinlarini yo‘qotish va birlashish umidlari kabi masalalar yoritilib berilgan. Bu mavzu millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan Koreya urushidagi fojiali voqealarni aks ettiradi.

Koreyada fuqorolar urushi (1950-1953) Koreya tarixidagi eng fojiali voqealardan biri edi. Bu millionlab odamlarning o‘limiga, infra tuzilmaning vayron bo‘lishiga va milliy o‘zlikni yo‘qotishga olib keldi. Urush koreys adabiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatib, yangi janr – nasriy Ekzistensializmni vujudga keltirdi. Ekzistensializm (lot. yashash, mavjudlik), mavjudlik falsafasi -falsafadagi yo‘nalish. XX-asr boshida Rossiyada, Birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, Ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo‘lgan. S.Kyerkegor (1813-55) ta’limoti, hayot falsafasi, fenomenologiya Ekzistensializmning g‘oyaviy manbai hisoblanadi. Diniy Ekzistensializm. (K. Yaspers, G. Marsel, N.A. Berdyayev, L. Shestov, M.Bubur) va ateistik Esiztensializm (M. Haydegger, J. P.Sartr, A. Kamyu) bir-biridan farqlanadi. Markaziy tushunchasi ekzistensiya (inson mavjudligi). Inson mavjudligi asosan g‘amxo‘rlik, qo‘rqish, qat’iylilik, vijdon kabilarda namoyon bo‘ladi. Dahshat, qo‘rquv, o‘lim inson yashashining asosini tashkil etadi. Inson o‘zini ekzistensiya sifatida anglagandan keyin erkinlikka erishadi, bu erkinlik o‘z o‘zini, o‘zining mohiyatini tanlashdan iborat bo‘lib, insonga olamda yuz berayotgan barcha narsa uchun mas’uliyat yuklaydi borliqning fojialiligini, uning mantiqqa xilofligini, inson ixtiyorida emasligini targ‘ib qiladi. Ekzistensializm oqim sifatida tugaganligiga qaramay, hozirgi kunda uning asosiy tamoyillari Yevropa xalqlari mentalitetiga singib ketgan. U g‘arb adabiyoti va san’atiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ekzistensializm insonlar o‘z hayotlari ma’nosini o‘zlari yaratishlarini ta’kidlovchi falsafiy oqimdir. Ekzistensializm mavjudlik ma’nosi olamshumuldir deb uqtiruvchi metafizik prinsiplarni rad etadi. Oqimga XIX-asrda Kierkegaard hamda Nietzsche ning ishlariorqali asos solgan, deb hisoblanadi. 1940-50 yillarda fransuz faylasuflari, jumladan Jean-Paul Sartre va Simone de Beauvoir ekzistensializm bilan bog‘liq ilmiy hamda taxayyuliy asarlar yozishgan, ularda “dahshat, zerikish, begonalashish, absurd, ozodlik, vafo, va bo‘shliq” mavzularini yoritilgan. Koreyadagi prozaik ekzistensializm quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: Absurdlik va hayotning ma’nosizligi mavzusiga e’tibor qaratilgan. Ekzistensialist yozuvchilar dunyoni tasodifiylik va tartibsizliklar joyi sifatida tasvirlaydilar. Bu dunyoda inson hayoti mazmun va maqsaddan mahrum etilgan yolg‘izlik va begonalashish mavzusini tushunishlari, Ekzistensialistlar asarlaridagi odamlar o‘zlarini

yolg'iz va dunyodan begona his qiladilar. Ular jamiyatda o'z o'rnini va hayotining mazmunini topa olmaydi. Erkinlik va mas'uliyat mavzusini o'rganish. Ekzistensialist yozuvchilar inson hayotda o'z yo'lini tanlashda erkin ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq, bu erkinlik ham mas'uliyat bilan birga keladi. Koreyada 1950-1953 yillardagi prozaik ekzistensializmning asosiy asarlari: Li In-jik tomonidan "Yolg'iz tog'" (1948) Yun Kyung-Mokning "Shahar xotiralari" romani (1950) Seo Xvan Mokning "Qamoqxonadan maktublar" hikoyalar to'plami (1951)larni misol keltirishimiz mumkin.

1950-1953 yillarda Koreyadagi nasr ekzistensializmi koreys adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatib qolmasdan u koreys yozuvchilarini ichki dunyosini ifodalashda va urushdan keyingi Koreyaning murakkab voqeligini tushunishda yordam berdi.

Son Chang-sopning "Yomg'irli kunlar" qisqa hikoyasi "Munhak Yesul" Adabiy san'at jurnalida 1953 yil noyabr oyida chop etilgan, uch yillik Koreya urushini tugatgan koreya avgust oyi oxirida sulh shartnomasini imzolaydi. Ushbu nashr sanasidan ko'rinib turibdiki, "Yomg'irli kunlar" urush davridagi Koreya jamiyati va o'sha paytda koreyslar azob chekkan qashshoqlik haqida ma'lumot beradi. Haqiqatan ham, biz "Yomg'irli kunlarni" urush davridagi Koreya jamiyatining mikrokosmosi deb atashimiz mumkinligiga ishonamiz. "Yomg'irli kunlar" hikoyasi asosida film ham suratga olingan bo'lib Dong-Vuk va Dong-Ok, aka-singilning hikoyasini, ularning do'sti va hikoyachi Von-Gunning ko'zlari bilan taqdim etilgan. Uchchalasi ham Shimoliy Koreyadan Janubiy Koreyaga qochib o'tgan qochqinlar bo'lib, ular urush paytida Shimoliy Koreya tizimiga qarshi bo'lganliklari natijasida janubga kelgan va janubda yashash uchun hech qanday asosga ega bo'lmaganlar. Ikki ovlon aka-singil iqtidorli Dong-Ok chizgan suratlarini amerikalik GLSga sotish orqali zo'rg'a urushdan tirik qolishadi. Dong-Vuk AQSh harbiy bazalaridan buyurtmalar oladi va singlisi chizib tugatgan portretlarini ularga sotib arzimagan choy chaqqa oladi. Dong-Vukning ko'chadagi yagona kiyim-kechaklari cherkovdan beriladigan yordam kiyimlari edi. Garchi nasroniy bo'lsa-da, Dong-Vuk o'sha paytdagi Koreyadagi boshqa nasroniylardan farqli o'laroq, alkogol ichimliklarni ichishni yaxshi ko'rar, qachon ichsa, ruhoni bo'lish orzusi haqida tinmay dovdorab gapirib yuradi. Bu aka-singil dalada chekka bir hududda har qanday vaqtda qulab tushishi mumkin bo'lgan haroba uyda yashardi. Yomg'irli mavsumda yomg'ir suvi tomdagi teshiklardan tinmay oqar, uyning ichi qorong'u bo'lib, deraza teshiklarini somon bilan to'ldirilgan qoplar yopib turardi. Ikki yosh umidsiz hayot kechiradi, ular kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshpana uchun asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kurashadilar. Dong-Vukning do'sti Von-Guning hayoti aka-singilnikidan unchalik farq qilmaydi, u urushdan savdogar sifatida omon qoladi. Urush paytidagi odamlarning hayotlari, qashshoqligi shunday tasvirlangan bo'lib bundan tashqari, "Yomg'irli mavsum" da qashshoqlik emas ob'ektivlik yashash sharoitlari bilan chegaralanadi. Dong-Okning nogiron tanasi va psixologik holati chegarasi-antropofobiya haqida psixologik fikr bildirib, urush davridagi koreyslarning buzilgan holatini aks ettiradi. Asarda Von-Guning ko'zlari orqali, Dong-Ok bizni ko'proq o'ziga jalb qiladi. Dong-Vukga qaraganda Dong-Ok ko'proq azob chekadi nafaqat iqtisodiy qashshoqlik, balki sovuqqonlikdan, hamda mag'rur tabiat, bu uni boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan qochishga majbur qiladi. Dong-Ok odamlar bilan aralashishni hohlamaganligi uchun ham,

aka-singil shahardan ancha uzoq bo'lgan haroba uyda yashaydi. Dong-Ok nogironligi tufayli bu erni hech qachon tark eta olmasligi, uziga nisbatan manashu joyga izolatsiya qilinib, yolg'izlikka mahkum qilingan edi. Dong-Ok uchun, bu vaziyatdan qutulish umidi deyarli yo'q edi. Lekin asasini do'sti Von-Gu bilan tanishgandan keyin uning fikri o'zgara boshlaydi. Bundan xavotirga tushgan Dong-Vuk do'sti Von-Guga yuragini ochadi. Singlisiga uylansa, u umidsizlikka tushishi uning barcha jamg'armalari aloqasini yo'qotishi, hikoya oxirida Von-Gu bilan bo'lib o'tgan vaziyat o'sha paytdagi Koreya tarixining dahshatli xolatini aks ettiradi. Muallif o'zining Dong-Ok tasviri orqali Koreya jamiyati va koreyslar urush paytida his qilgan boshi berk ko'chani ko'rsatmoqchi bo'lgan. Ushbu hikoyaning sahnasi ham ataylab qorong'u va dahshatli tarzda ifodalangan. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, unda barcha voqealar butunlay yomg'irli kunlarda bo'lib o'tganligi tasvirlanganini guvohi bo'lamiz. Yomg'irli mavsum davom etmoqda. Qorong'u, quyoshsiz osmon ostida do'sti va do'stining singlisini ziyorat qilish uchun ketayotgan Von-Guning qadamlari botqoq va tepalik yo'li tufayli sust bo'lib borar edi. Masofadagi kulba va nam xonali shiftidan oqayotgan yomg'ir tomchilari bu hikoyadagi fazoviy atmosferani ham qorong'u, ham ma'yus tasvirlagan. Bu ob-havo va muhit hikoyaning mavzusini, aka-singilning qashshoq va izolyatsiya qilingan hayotini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, Von-Guning aka-singilga bo'lgan mehr-shafqati va e'tibori tufayli, bu voqea unchalik dahshatli va umidsiz emasligiga ishonsa bo'ladi. Von-Gu birinchi sovuq javobiga qaramay, Dong-Okga qiziqish ko'rsatishda davom etadi va bu uning yuragini asta-sekin yumshatishga muvaffaq bo'ladi, ammo umidsiz kelajakni taklif qilmaslik uchun "Yomg'irli kunlar" hikoyasi fojiali tarzda yakunlanadi. Ammo bu fojiali yakun tufayli. Von-Guning g'oyib bo'lgan Dong-Ok uchun rahm-shafqati va pushaymonligi yanada kuchayadi. Muallif bizga Koreya jamiyatining urush davridagi qashshoqlik hayotini xolis, ammo hamdardlik bilan aks ettiruvchi asarni muvaffaqiyatli taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 고석주. 현대 한국조사의 연주].-서울]: 한국문화사, 2004,
1. 2.김성희.조사 '가' 의 의미와주제. -서울: 연세어문학, 1953 - 365b
2. 3.<https://www.ktlit.com/history-of-korean-literature-han-miracle-pundan-munhak-lives/>
3. 4.Bi-lingual Edition Modern Korean Literature 109- 63b
4. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. Международный журнал искусство слова, 5(4).
5. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 677-681.
6. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаемой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192

8. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o 'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.
7. Назарова, Ш. (2017). О масштабе реализации феномена транспозиции. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(3 (64)), 83-87.
8. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'liqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
9. Баёнханова, И. Ф. (2023). Нутқий мулоқот одобини ифодаловчи махоллар (ўзбек ва корейс тиллари мисолида). *Инновации: Журнал социальных наук и исследований*, (1), 211–214.
10. Kamaeva, M. (2022). Koreys va o'zbek tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali so'z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta'limda foydalanish. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.
11. Вахабова, М. Т. (2023). Сопоставительный анализ ключевой лексики-репрезентанта (имени) концепта «мать» в русском, корейском и узбекском языках (на материале словарей). *Journal of Integrated Education and Research*, 2(3), 52-57.
12. Вахабова, М. Т. (2023). Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(6), 101-103.